

## Navbatdagi seminar trening

☒ Suv xo'jaligi sohasidagi professor-o'qituvchilarni tayyorlash maqsadida Yevropa Ittifoqining "O'zbekistonning qishloq hududlarida suv resurslarini barqaror boshqarish" dasturi doirasida amalga oshirilayotgan BMT Taraqqiyot Dasturi va O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining "Texnik salohiyatni mustahkamlash" qo'shma loyihasi asosida "PLATFORMA" o'quv markazida seminar trening tashkil qilindi.

Seminar trening 30.04.2019 yilda boshlandi. Trening rasmiy ochilish marosimi bilan boshlanib, uni tashkil qilishdan ko'zlangan maqsad va vazifalar aytib o'tildi. Kun davomida professor-o'qituvchilarga kattalarni o'qitishning bir nechta usullari va metodlari haqida tushunchalar berildi. Trening asosan kattalarni o'qitish xususiyatlariga bag'ishlandi.

Seminar treningni qolgan kunlarida oldingi kunni takrorlash va yangi kunning maqsad va vazifalari, bir qancha interfaol uslublar, Yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llari va boshqalar ustida so'z yuritildi. Seminar trening 03.05.2019 yilda o'z nihoyasiga yetdi. Seminar trening yakunida bajarilgan ishlarning yakuni va berilgan topshiriqlar bo'yicha prezentatsiya tayyorlandi va qatnashchilarga namoyish etildi. Seminar treningda bajarilgan mashg'ulotlar va berilgan malumotlar asosida kafedra ichki yig'ilishida taqdimoti namoyishi etildi.

**INSTITUT MATBUOT KOTIBI RAHIMBOY JUMANIYOZOV**